

“TASDIQLAYMAN”

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy komissiyasi raisi



O.Raximova

«21» abryos 2023 y

Qo‘shko‘pir tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONI № 9

2023 yil «21» abryos

Qo‘shko‘pir tuman

Yig‘ilish raisi:

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy komissiya raisi O.Raximova

Ishtirok etganlar:

Qo‘shko‘pir tuman IIO FMB va tuman hokimligi xodimlari, xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengash kotibiyat xodimlari va doimiy komissiya a‘zolari.

KUNTARTIBI:

Qo‘shko‘pir tumanida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

(B.Egamov, Z.Matnazarov, R.Matyakubov, O.Xajimov, X.Raximov, S.Xudayberganova, M.Qutlimurotov)

Tinglandi: Kun tartibidagi masala yuzasidan Qo‘shko‘pir tuman hokimi B.Egamov so‘zga chiqib, Qo‘shko‘pir tumani Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlarda targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib, korrupsiyaning kelib chiqishiga shart-sharoit yaratilishining oldini olish va korrupsiyaning salbiy oqibatlarini bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilayotganligi to‘g‘risida aytib o‘tdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Byurokratik to‘siqlarning bekor qilinishi natijasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati yanada yaxshilandi.

Shuningdek, tuman IIB, Adliya bo‘limi, huquqni muhofaza qilish muassasalari va tuman hokimligi xodimlariga ish faoliyati davomida korrupsion huquqbuzarlik holatlariga yo‘l qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida gapirib o‘tdi.

Bundan tashqari, tumanda ishga qabul qilishdagi ta'magirlik va korrupsion xolatlar mavjudligi, davlat va tashkilotlar vakant lavozimlariga tanlovsiz ishga qabul qilish holatlariga yo'l qo'ymaslik, Qo'shko'pir tumanda bo'sh ish o'rinlarini yashirish holatlari yuz bermasligi to'g'risida aytib o'tdi.

Shuningdek, Qo'shko'pir tuman hokimlikning rasmiy veb-saytlarida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'liq joylashtirilmaganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan keyin, Qo'shko'pir tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, 3-sektor rahbari so'zga chiqib, tumanda o'tgan yilga nisbatan o'g'irlik va firibgarlik jinoyati keskin ko'payganligini, ayniqsa fuqarolarning plastik kartasidan pul yechib olish bilan bog'liq jinoyatlar oshganini, bu yuzadan chora-tadbirlar ishlab chiqib, ish olib borishayotgani, tuman hududida korrupsion holat bilan bog'liq jinoyatga jazo muqarrarligini ta'kidlab o'tdi.

Bundan tashqari, xalq deputatlar tuman Kengashining sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya raisi O.Raximova ham o'z so'zida tumanda sodir qilinib turgan turi jinoyatlarni oldini olish uchun Qo'shko'pir tuman Kengashi deputatlarining o'rni kattaligini, ular o'zi saylangan hududda jinoyat sodir qilinishini oldini olish bo'yicha mahallaga biriktirilgan profilaktik inspektorlari bilan zarur choralarni ko'rib borishlari kerakligini ta'kidlab, o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib, yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash milliy kengashining 2023-yil 7-apreldagi 9-sonli yig'ilish bayonnomasi hamda mazkur bayonnomaning 1,2,5-ilovasi bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hamda Qo'shko'pir tumanida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi Qo'shko'pir tuman hokimi B.Egamovning ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi barcha korxonalar va tashkilot rahbarlariga:

- tumanda ochiqlikni ta'minlash maqsadida tuman hokimlikning rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar har oy yakuni bilan tuman hokimligi matbuot kotibiga taqdim qilib borilsin.

3. Qo'shko'pir tuman hokimligi matbuot kotibi (M.Atabayeva)ga bir oy muddatda tuman hokimlikning rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni to'liq joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur majlis bayoni qarorining ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengash kotibiyat mudiri G.Ro'zmetova zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi:

G.Ro'zmetova